



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov **Salimov Oqil Umrzoqov**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORII ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashovich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvoxid Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhrukh Ziyavaddinov	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	312
Xoliqulova Yulduz Panji qizi	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI	317
Mavlonov Ozod Ulug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	322
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	334
Adilova Zohida Ikromjonovna	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	339
Umurzakov Dilshodbek Hakimovich	
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ	345
Хамидов Далер Дилшодович	
ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA.....	351
Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
CONSUMER TRUST IN UZBEKISTAN'S E-COMMERCE	356
Erkin Shavqiyev Professor, Ulugmurodov Farkhod	
IMPROVING THE FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES.....	362
Karamatdinova Aysawle Parakhatovna	
XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI TAHLILI: O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	369
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	374
Islomov Bobur Bahodir o'g'li	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARGA AMORTIZATSIYA HISOBLASH USULLARI VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH	380
Xasanov Shoxrux Raximjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA REAL SEKTOR KORXONALARINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	385
Sobitova Ra'no Solidjonovna, Babaxadjayev Firdavs Bahodir o'g'li	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK CONSULTING SERVICES MARKET AND METHODS FOR ASSESSING THE POTENTIAL FOR ATTRACTING INVESTMENTS	388
Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.....	394
Kalanova Moxigul Baxritdinova	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KORXONA BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	399
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
BALIQCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK MAJMUALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ROSSIYA TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	406
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI	416
Xasanov Komil Mutalibjanovich	
TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI: EMPIRIK TAHLIL	421
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FINANCIAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF ADDITIONAL ACTIVITIES IN FARM ENTERPRISES	426
Kalimbetov Khaliknazar Kurbanbaevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	432
Suyarov Shaxzod Salim o'g'li	



KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Suyarov Shaxzod Salim o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: shakhzodsuyarov@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9747-1389

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi yirik korxonalar misolida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2021–2024 yillar statistik ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining dinamikasi o'rganilib, ularning o'zaro ta'siri baholanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari, mehnat resurslari, moddiy texnik baza va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kimyo sanoati korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish, modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va integral yondashuv asosida boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kimyo sanoati, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi, resurs samaradorligi, energiya sig'imi, "O'zkimyosanoat" AJ, integral yondashuv, sanoat korxonalari, modernizatsiya.

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of ways to enhance the economic efficiency of chemical industry enterprises in Uzbekistan, using major companies within the "Uzkimyosanoat" JSC system as case studies. Based on statistical data for the years 2021–2024, the study examines the dynamics of production volume and labor productivity and evaluates their interrelationship. The research identifies links between production processes, labor resources, material and technical capacity, and financial indicators, allowing the determination of key factors influencing economic efficiency. The findings provide a scientific basis for developing recommendations aimed at improving resource efficiency, accelerating modernization processes, and enhancing managerial effectiveness through an integrated approach.

Key words: chemical industry, economic efficiency, labor productivity, production volume, resource efficiency, energy intensity, "Uzkimyosanoat" JSC, integrated approach, industrial enterprises, modernization.

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ вопросов повышения экономической эффективности предприятий химической промышленности Узбекистана на примере крупных организаций системы АО «Узкимёсаноат». На основе статистических данных за 2021–2024 годы исследуются динамика объемов производства и производительности труда, а также оценивается их взаимосвязь. В ходе исследования выявляются корреляции между производственными процессами, трудовыми ресурсами, материально технической базой и финансовыми показателями, что позволяет определить ключевые факторы, влияющие на рост экономической эффективности. Полученные результаты служат основой для разработки научно обоснованных рекомендаций по рациональному использованию ресурсов, ускорению процессов модернизации и повышению эффективности управления на основе интегрального подхода.

Ключевые слова: химическая промышленность, экономическая эффективность, производительность труда, объем производства, ресурсная эффективность, энергоёмкость, АО «Узкимёсаноат», интегральный подход, промышленные предприятия, модернизация.



KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va sanoatni modernizatsiya etish strategiyalarida kimyo sanoati ustuvor tarmoqlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur tarmoq mineral o'g'itlar, polimerlar, soda va boshqa kimyoviy mahsulotlar orqali milliy oziqovqat xavfsizligi hamda metallurgiya, qurilish va transport kabi tarmoqlarning barqaror ishlashi uchun zarur xomashyo bazasini shakllantiradi. 2020yillarda "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalariga yirik investitsiya loyihalari jalb qilinib, "Navoiyazot" AJda ammiak va karbamid ishlab chiqarish, "MaxamChirchiq" AJda nitrat o'g'itlari ishlab chiqarish, "Qo'ng'irotda esa soda ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilindi. Shu bilan birga, tabiiy gaz va elektr energiyasi narxlarining o'zgaruvchanligi, jahon bozorida kimyoviy mahsulotlar narxlarining tebranishi va ekologik talablarning kuchayishi korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonini murakkablashtirib, uni ko'p omilli masalaga aylantirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda korxonalar samaradorligi odatda resurs samaradorligi yoki umumiy omil unumdorligi (TFP) nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Solow, Farrell, Charnes va Coelli tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda samaradorlikni o'lchashning turli metodlari taklif qilingan. Hsieh va Klenow, Syverson tadqiqotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi samaradorlikdagi katta tafovutlar boshqaruv sifati, texnologiyalarning rivojlanganligi va resurslarni taqsimlash mexanizmlariga bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston kimyo sanoatiga oid mavjud izlanishlar esa asosan resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish hajmi yoki rentabellikning alohida ko'rsatkichlarini tahlil qilish bilan chegaralanadi. Shu bois ishlab chiqarish, moliyaviy, resurs va energiya omillarini birlashtirgan integrallashgan yondashuvlarning yetishmasligi seziladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning ilmiy muammosi kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash va boshqarishda ko'p omilli integral model hamda resurs samaradorligi mexanizmini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi – "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi yirik korxonalarining 2021–2024yillardagi faoliyati asosida iqtisodiy samaradorlik darajasini kompleks baholash, ko'p omilli integral indeks modelini ishlab chiqish va samaradorlikni oshirish bo'yicha tashkiliy iqtisodiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Resurs samaradorligi masalasi xorijiy iqtisodchilar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida chuqur o'rganilgan. Solowning umumiy omil unumdorligi nazariyasi iqtisodiy o'sishda resurs samaradorligi markaziy o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslagan. Farrell samaradorlikni o'lchashda texnik samaradorlik va ajratish samaradorligini birinchi bor tizimli tarzda farqlab, samaradorlik tahliliga metodologik asos yaratgan.

Hsieh va Klenow Xitoy va Hindiston sanoatida resurslarni noto'g'ri taqsimlash umumiy omil unumdorligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, resurs notaqsimoti natijasida TFP Xitoyda 30–60%, Hindistonda esa 40–60% pastlashgan. Mazkur xulosalar rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham resurs taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirishning strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Wu va Yang o'z tadqiqotlarida mintaqaviy integratsiya korxonalar o'rtasidagi resurs taqsimoti samaradorligini oshirishi va bozor moslashuvchanligini kuchaytirishini ilmiy asoslab bergan. Bu natijalar O'zbekiston kimyo sanoati uchun ham dolzarb, chunki "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar yagona boshqaruv tizimida faoliyat yuritadi va ularning o'zaro resurs kooperatsiyasi raqobatbardoshlikni oshirish imkonini yaratadi.

Syverson tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqotda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi samaradorlik farqlarini belgilovchi omillar — menejment sifati, texnologik innovatsiyalar, xodimlar malakasi va raqobat muhiti — chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari soha ichidagi samaradorlik tafovutlarining katta ekanligini va ularni qisqartirish bo'yicha salmoqli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

UNIDOning 2024yilgi hisobotida O'zbekiston sanoat zonalarida resurs samaradorligi va tozaroq ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etishning aniq mexanizmlari taklif etilgan. Ushbu hujjatda kimyo sanoati ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, energiya intensivligini 20–25% kamaytirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlangan.

O'zbekiston olimlaridan Yusupov B.X. kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini baholashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Toshmatov U.T. mehnat unumdorligini oshirish omillarini tahlil qilgan, Raximov X.A. esa sohada moliyaviy resurslar aylanishi masalalarini o'rgangan. Ushbu ilmiy manbalar sharhi asosida mazkur tadqiqot uchun resurs samaradorligini kompleks baholashning yaxlit metodologik tizimi shakllantirildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kimyo sanoatiga oid kompleks va miqdoriy tadqiqotlar hali juda kam, mavjud ilmiy ishlanmalar esa masalaning faqat ayrim jihatlarini yoritib keladi. Shu sababli mazkur maqola mavzuga mustaqil ilmiy hissa qo'shadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash, dinamik tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy mantiqiy tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Statistik tahlil ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining dinamikasini baholashga xizmat qildi. Taqqoslash yondashuvi korxonalar kesimida samaradorlik darajasidagi farqlarni aniqlashga yordam berdi. Dinamik tahlil ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash va ularning barqarorlik tendensiyalarini belgilash imkonini berdi. Tizimli yondashuv ishlab chiqarish, mehnat va resurs omillarini yagona integrallashgan tizim sifatida ko'rib chiqish orqali ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga imkon yaratdi. Iqtisodiy mantiqiy tahlil olingan natijalarni ilmiy asosda umumlashtirish va yakuniy xulosalarni shakllantirishda qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va yirik investitsiya loyihalarini joriy etish tarmoqning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlamoqda. Ushbu jarayonlar kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining ortishi, mahsulot turlarining diversifikatsiya qilinishi hamda ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlikning kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur holatdan kelib chiqib, "O'zkimyosanoat" tizimidagi korxonalar ishlab chiqarish hajmi dinamikasini tahlil qilish tarmoq rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, korxonalar kesimida o'sish sur'atlarini baholash va mavjud imkoniyatlar hamda cheklovlarni belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2021–2024yillar davridagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'zgarishini chuqur o'rganish tarmoqda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini baholash hamda kelgusidagi strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1jadval. "O'zkimyosanoat" tizimidagi korxonalar ishlab chiqarish hajmi dinamikasi (2021–2024yillar, mlrd so'm)¹

Korxonona	2021	2022	2023	2024	Mutlaq o'sish 2021–2024	Nisbiy o'sish, %
Navoiyazot	2 980,0	5 306,4	4 779,1	5 817,0	2 837,0	95,2
Farg'onaazot	620,0	820,0	1 119,1	1 382,1	762,1	122,9
MAXAM Chirchiq	850,0	1 020,0	1 250,0	1 811,4	961,4	113,1
Ammofos MAXAM	180,0	250,0	300,0	350,0	170,0	94,4
Dehqonobod kaliy	90,0	130,0	155,0	180,0	90,0	100,0
Qo'ng'iro't soda zavodi	55,0	75,0	90,0	110,0	55,0	100,0
Jami	4 775,0	7 601,4	7 693,2	9 650,5	4 875,5	102,1

O'zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonalar samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan izchil choratadbirlar bilan tavsiflanadi. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va investitsiya loyihalarini joriy etish natijasida tarmoqning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada mustahkamlandi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot turlarining diversifikatsiya qilinishiga hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur jadvalda "O'zkimyosanoat" tizimidagi asosiy korxonalarining 2021–2024yillar davomidagi ishlab chiqarish hajmi dinamikasi tahlil qilingan bo'lib, mavjud ma'lumotlar tarmoqning umumiy rivojlanish tendensiyalarini, tarkibiy o'zgarishlarni va korxonalar ulushidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish darajasini baholash va strategik boshqaruv qarorlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024yillar davomida tarmoq bo'yicha jami ishlab chiqarish hajmi 4 775,0 mlrd so'mdan 9 650,5 mlrd so'mgacha oshib, 4 875,5 mlrd so'mlik mutlaq o'sishga erishilgan. Nisbiy o'sish 102,1 foizni tashkil etib, tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va texnologik modernizatsiyaning samaradorligini ko'rsatadi.

1 Muallif tomonidan yaratilgan.



Korxonalar kesimidagi tahlil “Navoiyazot” AJning eng yirik ishlab chiqaruvchi ekanini tasdiqlaydi. Korxonada ishlab chiqarish hajmi 2 980,0 mlrd soʻmdan 5 817,0 mlrd soʻmgacha oshib, 2 837,0 mlrd soʻmlik mutlaq oʻsish kuzatilgan. Bu koʻrsatkich mazkur zavodning strategik ahamiyatini va modernizatsiya dasturlarining amaliy samarasini namoyon etadi.

“Fargʻonaazot” AJda ham barqaror oʻsish surʼatlari qayd etilgan. 2021yilda 620,0 mlrd soʻmni tashkil etgan ishlab chiqarish hajmi 2024yilda 1 382,1 mlrd soʻmga yetgan boʻlib, 762,1 mlrd soʻmlik oʻsish va 122,9 foiz nisbiy koʻrsatkich qayd etilgan. Bu korxonada diversifikatsiya darajasi va bozor talablariga moslashuvchanlik yuqoriligini koʻrsatadi.

“MAXAMChirchiq” AJda ishlab chiqarish hajmi 850,0 mlrd soʻmdan 1 811,4 mlrd soʻmgacha oshib, 961,4 mlrd soʻmlik oʻsish va 113,1 foizlik surʼat qayd etilgan. Bunda investitsiya loyihalarining faolligi va modernizatsiya jarayonlari asosiy rol oʻynagan.

“AmmofosMAXAM” AJda oʻsish nisbatan barqaror boʻlib, 2021yildagi 180,0 mlrd soʻm 2024yilda 350,0 mlrd soʻmga yetgan. Mutlaq oʻsish 170,0 mlrd soʻmni, nisbiy oʻsish esa 94,4 foizni tashkil etadi. Oʻsish surʼatlarining nisbatan pastligi barqaror ishlab chiqarish modeli bilan izohlanadi.

“Dehqonobod kaliy” AJ va “Qoʻngʻirot soda zavodi”da ham ishlab chiqarish hajmi deyarli ikki baravarga oshgan boʻlib, mos ravishda 90,0 mlrd soʻmdan 180,0 mlrd soʻmga va 55,0 mlrd soʻmdan 110,0 mlrd soʻmga yetgan. Bu korxonalarda talabning ortishi va resurslardan samarali foydalanish muhim omil sifatida namoyon boʻlgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari “Oʻzkimyosanoat” tizimida ishlab chiqarish hajmlarining barqaror oʻsib borayotganini, yirik korxonalar hissasining sezilarli ekanini va tarmoqda mavjud imkoniyatlarning yetarli darajada ekanini koʻrsatadi. Shuningdek, korxonalar oʻrtasidagi oʻsish surʼatlari farqi texnologik daraja, resurslar taqsimoti va boshqaruv samaradorligiga bogʻliqligini anglatadi. Kelgusida tarmoqda yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samaradorlik tafovutlarini qisqartirish ustuvor yoʻnalish boʻlib qoladi.

Mehnat unumdorligi kimyo sanoati korxonalari faoliyatini baholashda asosiy koʻrsatkichlardan biri sanaladi. Ushbu koʻrsatkich ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchiga nisbati sifatida aniqlanib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Mehnat unumdorligining oʻsishi ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va boshqaruvning takomillashuvi bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu bois “Oʻzkimyosanoat” tizimi korxonalarida mehnat unumdorligi dinamikasini oʻrganish tarmoqning rivojlanish bosqichini va ichki samaradorlik zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega (2-jadval).

2jadval. Mehnat unumdorligi koʻrsatkichlari ($W = Q/L$, mln soʻm/ishchi)²

Korxonalar	Xodimlar soni	W 2021	W 2022	W 2023	W 2024	Oʻsish 2021–2024, %
Navoiyazot	9 000	331,1	589,6	531,0	646,3	+95,2
Fargʻonaazot	3 200	193,8	256,3	349,7	431,9	+122,9
MAXAM Chirchiq	3 500	242,9	291,4	357,1	517,5	+113,1
Ammofos MAXAM	1 200	150,0	208,3	250,0	291,7	+94,4
Dehqonobod kaliy	800	112,5	162,5	193,8	225,0	+100,0
Qoʻngʻirot soda zavodi	450	122,2	166,7	200,0	244,4	+100,0

Jadval maʼlumotlariga koʻra, 2021–2024yillar davomida barcha korxonalarda mehnat unumdorligi koʻrsatkichlarida barqaror va izchil oʻsish kuzatilgan. Ushbu tendensiya kimyo sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiya qilinishi, avtomatlashtirish darajasining oshishi hamda resurslardan foydalanish samaradorligining yaxshilanganini koʻrsatadi.

“Navoiyazot” AJda mehnat unumdorligi 2021yildagi 331,1 mln soʻm/ishchidan 2024yilda 646,3 mln soʻm/ishchiga yetib, 95,2 foizlik oʻsish qayd etilgan. Bu natija korxonada ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshgani bilan birga, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ham izchil takomillashganini anglatadi.

“Fargʻonaazot” AJda eng yuqori oʻsish surʼati qayd etilib, mehnat unumdorligi 193,8 mln soʻmdan 431,9 mln soʻmgacha oshgan. Nisbiy oʻsish 122,9 foizni tashkil etgan boʻlib, bu korxonada texnologik yangilanishlar, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va boshqaruvni optimallashtirish jarayonlari faol amalga oshirilganini koʻrsatadi.

“MAXAMChirchiq” AJda mehnat unumdorligi 242,9 mln soʻmdan 517,5 mln soʻmgacha oshib, 113,1 foizga teng oʻsish surʼati qayd etilgan. Bunda investitsiyaviy faollik, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik modernizatsiyaning ijobiy taʼsiri seziladi.

² Muallif tomonidan yaratilgan.



“AmmofosMAXAM” AJda mehnat unumdorligi 150,0 mln soʻmdan 291,7 mln soʻmgacha oshib, 94,4 foizlik oʻsish qayd etilgan. Koʻrsatkich boshqa yirik korxonalar bilan solishtirganda nisbatan past boʻlsada, barqaror oʻsish tendensiyasi saqlanmoqda.

“Dehqonobod kaliy” AJ va “Qoʻngʻirot soda zavodi”da mehnat unumdorligi deyarli ikki baravarga oshgan boʻlib, ikkala korxonada 100 foizlik oʻsish qayd etilgan. Xususan, “Dehqonobod kaliy”da koʻrsatkich 112,5 mln soʻmdan 225,0 mln soʻmga, “Qoʻngʻirot soda zavodi”da esa 122,2 mln soʻmdan 244,4 mln soʻmga yetgan. Bu oʻsish ishlab chiqarish jarayonlarining yaxshilanishi, texnologiyalarni yangilash va mahsulotga boʻlgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari “Oʻzkimyosanoat” tizimi korxonalarida mehnat unumdorligi barqaror oshib borayotganini koʻrsatadi. Bu jarayon tarmoqda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, texnologik modernizatsiya dasturlarini izchil amalga oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishning natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonalar oʻrtasida mehnat unumdorligi darajasidagi tafovutlar mavjud boʻlib, kelgusida ilgʻor tajribalarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ushbu tafovutlarni kamaytirish dolzarb vazifa boʻlib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2021–2024yillar davomida “Oʻzkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalarda ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi izchil oshib borganini koʻrsatadi. Umumiy ishlab chiqarish hajmining 102,1 foizga oʻsishi tarmoqda modernizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, investitsiya faolligining ortishi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi bilan izohlanadi.

Alohida korxonalar koʻrinishida oʻtkazilgan tahlil ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi oʻsish surʼatlari oʻrtasida muayyan tafovutlar mavjudligini aniqladi. Xususan, “Fargʻonaazot” AJ hamda “MAXAMChirchiq” AJda yuqori oʻsish surʼatlari qayd etilgan boʻlsa, ayrim korxonalarda nisbatan past natijalar kuzatilgan. Bu tafovutlar resurslarni taqsimlash mexanizmlaridagi cheklovlar, texnologik daraja farqlari va boshqaruv samaradorligining turlicha boʻlishi bilan bogʻliq.

Mehnat unumdorligi tahlili barcha korxonalarda ijobiy dinamikani namoyon etgan. Bu holat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining oshganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, energiya sigʻimining yuqoriligi, material sarfining nisbatan katta boʻlishi hamda soliq yuklamasining mavjudligi iqtisodiy samaradorlikning toʻliq roʻyobga chiqishiga maʼlum darajada toʻsqinlik qilayotgan omillar sifatida namoyon boʻlmoqda.

Umuman olganda, tahlil tarmoqda oʻsish uchun yetarli ichki imkoniyatlar mavjudligini, ammo ularni toʻliq safarbar qilish uchun resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70. – No. 1. – P. 65–94.
2. Farrell M.J. The Measurement of Productive Efficiency // Journal of the Royal Statistical Society. Series A. – 1957. – Vol. 120. – No. 3. – P. 253–290.
3. Hsieh C.T., Klenow P.J. Misallocation and Manufacturing TFP in China and India. – Quarterly Journal of Economics, 2009.
4. Syverson C. What Determines Productivity? – Journal of Economic Literature, 2011.
5. Coelli T.J., Rao D.S.P., O'Donnell C.J., Battese G.E. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. – Springer, 2005.
6. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Resource Efficiency and Cleaner Production. – Vienna, 2024.
7. Yusupov B.X. Kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini baholash metodologiyasi. – Toshkent, 2020.
8. Toshmatov U.T. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va yoʻllari. – Toshkent, 2019.
9. Бегмуллаев О., Суяров Ш. Sanoat korxonalarini samaradorligini baholashning zamonaviy usullariga xos xususiyatlar. – Interpretation and Researches, 2025, №1 (47).
10. Begmullayev O.I. Sanoat korxonalarini bozor sharoitlariga moslashtirish samaradorligini oshirish (Monografiya). – Interpretation and Researches, 2024, 2(15).
11. Begmullayev O. Sanoat korxonalarini bozor sharoitlariga moslashtirishga nazariy yondashuvlar. – Green Economy and Development, 2025, 3(2).
12. Саотов Ф., Саманов А., Бегмуллаев О., Хикматов Р. Повышение инвестиционной привлекательности промышленных предприятий. – Talqin va Tadqiqotlar, 2025, №1 (59).
13. Бегмуллаев О.И. Оценка финансово-экономического состояния промышленного предприятия. – Вопросы экономических наук, 2008, №5, С. 25–26.
14. Бегмуллаев О.И. Факторы экономической несостоятельности промышленных предприятий и эффективность их функционирования в рыночных условиях. – Евразийский научный журнал, 2017, №3, – С. 151–152.



15. Соатов Ф.У., Бегмуллаев О.И. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: необходимость и целесообразность. – Евразийский научный журнал, 2016, №6, – С. 92–94.
16. Бегмуллаев О.И. Организационно-экономический механизм развития промышленных предприятий в условиях их экономической несостоятельности. – Кластерные инициативы в формировании прогрессивной структуры национальной экономики, 2015.– С. 48–51.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
